

O'ZBEK VA TURK TILLARIDA QARATQICH KELISHIGINING TARIXIY VA ZAMONAVIY SHAKLLARI

Tursunboyeva Zuhra

SamDPI magistranti

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda o'zbek va turk tillarida qaratqich kelishigining tarixiy taraqqiyoti hamda zamonaviy til tizimidagi qo'llanish xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy tillar taraqqiyoti jarayonida qaratqich kelishigining shakllanishi, uning qadimgi turkiy yodgorliklar, o'rta asr yozma manbalari va hozirgi adabiy tillardagi ko'rinishlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, o'zbek va turk tillarida qaratqich kelishigining morfologik shakllari, sintaktik vazifalari hamda egalik munosabatini ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: o'zbek, turk, ko'kturk, chig'atoy, kelishik, qaratqich, adabiy til, morfologiya, dialekt.

ИСТОРИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ РОДИТЕЛЬНОГО ПАДЕЖА В УЗБЕКСКОМ И ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Турсунбоева Зухра

*магистрантка Самаркандского государственного
педагогического института*

Аннотация. В данном исследовании проводится сравнительный анализ исторического развития родительного падежа в узбекском и турецком языках, а также особенностей его употребления в современной языковой системе. В работе на основе научных источников рассматривается формирование родительного падежа в процессе развития тюркских языков, его отражение в древнетюркских памятниках, средневековых письменных источниках и в современных литературных языках. Кроме того, анализируются морфологические формы родительного падежа в узбекском и турецком языках,

его синтаксические функции, а также роль в выражении притяжательных отношений.

Ключевые слова: узбекский язык, турецкий язык, тюркский, чагатайский, падеж, родительный падеж, литературный язык, морфология, диалект.

HISTORICAL AND MODERN FORMS OF THE GENITIVE CASE IN THE UZBEK AND TURKISH LANGUAGES

Tursunboyeva Zuhra

Master's student at Samarkand State Pedagogical Institute

Abstract. *This study provides a comparative analysis of the historical development of the genitive case in Uzbek and Turkish languages, as well as its functional features in the modern linguistic system. The research examines the formation of the genitive case throughout the evolution of Turkic languages, highlighting its representation in ancient Turkic inscriptions, medieval written sources, and contemporary literary languages based on scholarly references. Furthermore, the study analyzes the morphological forms, syntactic functions, and the role of the genitive case in expressing possessive relations in Uzbek and Turkish.*

Keywords: *Uzbek, Turkish, Old Turkic, Chagatai, case, genitive, literary language, morphology, dialect*

Qaratqich kelishigi turkiy tillarda egalik, qarashlilik va munosabat ifodalovchi muhim grammatik vositalardan biri hisoblanadi. Uning qadimgi turkiy davrdan boshlab shakllanishi, o'рта asr yozma manbalarida takomillashuvi hamda hozirgi zamon o'zbek va turk adabiy tillarida qo'llanish xususiyatlari tilshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida e'tirof etiladi. Mazkur kelishik shakllarining tarixiy ildizlarini o'rganish orqali turkiy tillarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkoniyati yuzaga keladi. Ma'lumki, turkiy tillarda kelishik qo'shimchalari otlarning gapdagi vazifalarini belgilaydi. Qaratqich kelishigi (turk tilida *ilgi hâli* dep nomlanadi) esa odatda otning boshqa bir ot bilan bog'liqligini ko'rsatib, egalik va munosabat ma'nolarini ifodalaydi.

Bu qo'shimcha o'ziga xos xususiyatga ega: u *"kimning?, nimaning?"* savollariga javob berib, ikki ot o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Masalan, o'zbek tilida *"kitobning"* so'zi, turk tilida esa *"annenin"* ko'rinishidagi shakllar qaratqich kelishigiga misol bo'ladi. Qaratqich kelishik qo'shimchasi turkiy tillarda turli o'zgarish jarayonidan o'tgan. Ayniqsa Chag'otay turkchasida uchraydigan *+nI* variantining kelib chiqishi uzoq va bahsli mavzu bo'lib keladi. Shuning uchun bu mavzu ilmiy izlanishlarda dolzarb hisoblanadi. So'nggi davrlarda ilmiy tadqiqotchilar *+nI* kelib chiqishi haqida turlicha fikrlarni ilgari surganlar, ammo bir qancha masalalar hanuzgacha o'z echimini topmagan. Biz bu maqolada tarixiy turkiy matnlar va hozirgi kundagi materiallarni tahlil qilib o'rgandik Xususan, qadimiy yozma yodgorliklar (Ko'kturk yodgorliklari), Kirill yozuvidagi qadimiy turk matnlarni va Qoraxoni davrida oid baddiy asarlari tahlil qilib chiqildi. Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki masalan, *"Qutadg'u bilig"*, Devonu Lug'ati-turk asarida asosan *+nig* va *+niŋ* shakllarini uchratasiz. Hozirgi kundagi yozilayotgan asarlarda hozirgi o'zbek va turk tili shevalarida hamda eng so'nggi tilshunoslik manbalari (Talat Tekin, Grönbech, Dorfer, Korkmaz, Karahan va boshqalar) turlicha ko'rinishga ega. Misol uchun, fin olimi Räsänen (Räsänen 1969: 56-58 b.) keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, o'zbekcha nutqda *+nI* shakli keng tarqalgan (*-ning* qo'shimchasining o'rniga). Ushbu maqolada asosida tarixiy rivojlanish bosqichlari va ayniqsa o'zbek hamda turk tillaridagi qo'shimcha shakllari solishtirildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, qaratqich qo'shimchasining tarixiy va zamonaviy shakllari quyidagicha tahlil qilindi:

VIII-IX asrlarga oid Ko'kturk yozuvidagi ba'zi bir izohlarda *+Ig* varianti uchraydi. Masalan, Kül Tegin bitikdoshida *"Türk bodunig atı küsi"* misolida *+Ig* qaratqich kelishigi shakli qo'llangan. Bu erda sifat birikmasida so'z oxiriga *-ig* qo'shimchasi kelib, *"bodunning"* ma'nosini bildiradi. Ushbu misolda qo'shimchadagi *-g* tovushi oldidagi *+ı* unli takrorlanib, kelishik shakli *+Ig* ko'rinishida yozilgan.

XI-XII asrlarga oid manbalarda, xususan "Devonu lugati-turk"da qaratqich kelishigi ko'pincha *+nig* (ba'zi hollarda *+niŋ*) shaklida uchraydi. Masalan, *asarida* *"Ernig süngüki"*, *"bir birnig yazukın"*, *"ayaknig yaruki"* kabi iboralar keltirilgan (ya'ni *erning suyun* - "yerning quyuidagi suv" ma'nosida ishlatilgan). Bundan tashqari

bu asarda “*men*” va “*sen*” kabi olmoshlarning qaratqich kelishigi ko‘rinishlari *menig*, *anig*, *senig* tarzida qayd etilgan. Devondagi misollarga ko‘ra, +*nig* shakli *n* tovushini *η* tovushiga aylanish bilan hosil bo‘lgan deb qaraladi, keyinchalik esa bu -*g* tovushi yozma ravishda yo‘qolib ketgan hisoblash mumkin.

Qoraxoniylar davri turk adabiyotida +*nig* shaklining asosan +*nıη* talqinlari saqlanib kelgan. “Qutadg‘u bilig”dan olingan matnlarda +*nIg* asosiy shakl emasligi kuzatilgan. Masalan, bir nechta iboralar va misollarda “*yaşnat kılıç başını üze*” (sulton posboni – “sulton sochining usti”) kabi +*nıη* qo‘shimchali holatlar ko‘zga tashlanadi (bu erda *başını* – “boshining” ko‘rinishi). Bu davrda +*nig* shakli kamdan-kam qo‘llanilib, ko‘proq +*nıη* ko‘rinishlari tarqalgan.

XIV-XV asrlarda Chag‘otay turkchasi va Xorazmda yaratilgan asarlarda +*nI* shakli keng qo‘llaniladigan bo‘ldi. Masalan, o‘sha davrda yaratilgan mashhur Nehchul-Farodis (Jannat yo‘li) asarida “*Ya sa'd bargıl kavmuñni cümlesini bir erke yığğıl*”, “*Bu anamni hakkını ötemiş bolğay mu men*” kabi iboralar mavjud. Bu misollarda “*kavmuñni*”, “*anamni*” kabi +*nI* qo‘shimchasi egalik munosabatini bildiradi. Turkolog olim Eckmannning fikricha, bu aslida qisqartirilgan kelishigi shaklidir, chunki +*nI* ko‘rinishi Chag‘otayda asl qaratqich bilan bir xil teskari (tushum) +*nI* bilan bir xil bo‘lgan, kuzatuv natijasida suni ko‘rsatdiki +(I)*n* sifatida ishlatilgan [Eckmann, 1988: 57-58]. O‘zbek tilida qaratqich kelishigi asosan -*ning* qo‘shimchasi bilan ifodalanadi. Masalan, “*kitobning qopqog‘i*” yoki “*onamning xonasi*” kabi. Bu ikkisi bir-biriga o‘xshash bo‘lib, +*nI* asosan +*nıη* ning ikkinchi varianti sifatida qaraladi. Abdurahmanov va boshqalari [G‘.Abdurahmonov va b. 2008: 122-124 b] ham zamonaviy o‘zbek tilidagi +*nI* shaklini asl +*nıη* dan teskari tovushning g‘alati (demek *n* tovushining) yo‘qolishi natijasida paydo bo‘lgan deb tushunadi. Ya’ni o‘zbekning og‘zaki uslubidagi +*nI* aslida fonetik jihatidan bosqichida o‘zgarganligini ko‘rsatadi.

Turkiy tilining hozirgi turk variantida qaratqich -*ın*, -*in*, -*un*, -*ün* ko‘rinishi bo‘lishi bilan bu aynan +*nI* qo‘shimchasi hisoblanadi. Masalan, “*annenin evi*” (onaning uyi) yoki “*üzümün tadı*” (uzumning ta’mi) kabi. Bu holat turk tilida +*nI* ning kelib chiqishi saqlanib qolganini anglatadi.

Olingan xulosamga ko'ra fonetik va tarixiy jihatdan asosli tahlil talab etdi. Birinchi navbatda, *+nI*, *+nIg*, *+niŋ* shakllaridagi o'zgarishlar fonetik jarayonlar (tovushlarning ishtiroki, tovush almashtirish) bilan bog'liq. Turk tilshunosi Talat Tekinning (2013) fikricha, turkiy tillarining eng qadimgi tili bo'lgan prototurkiy tilida qaratqich kelishik qo'shimchasi dastlab *+n* bo'lgan, unga bog'lovchi unli qo'shilib *+In* ga aylangan. Boshqa turk olimlari Grönbech (1995) va Kuznetsovlar (1995) esa bu qo'shimchani neŋ ("bizning") so'zidan kelib chiqqan bo'lishi ehtimolini bildirgan. Germaniyalik tilshunos olim Gerhard Doerfer (1993) *+nInni* kelib chiqishi jihatdan *ən* va *əg* kabi ikkilamchi belgilardan hosil bo'lishi mumkin deb taklif qilgan, ammo Tekin bu fikrga qarshi chiqib, bunday tuzilmaning normal ravishda *bizing* emas *bizinig* ko'rinishida bo'lishi kerakligini qayd etadi. Shuningdek, turli davrlar grammatik nazariyalari turlicha bo'lib qaratqich kelishigi (tushum kelishigi) qo'shimchalarining o'zaro ta'sirini ko'rib chiqadi. Masalan, Z.Korkmaz (Korkmaz,1995: 94-97) "*anı için*" kabi tuzilmalarda *+nI* ni oddiy bilinadigan tushum qo'shimchasining maxsus sintaktik ishlatilishi deb hisoblaydi: ya'ni *üçün* (uchun) so'zidan keyin kelganda qo'shimcha aslida qayta aniqlovchi vazifasini egallab, leksik va sintaktik xususiyat bilan *+nI* shaklida keladi. Turkolog olima Leyla Karahan esa bu ikki qo'shimchani haqiqiy kelishik emas emas, balki ismlarga o'z so'zining aniqlik ma'nosini beruvchi elementlar deb bilishni taklif etadi, chunki ularning funksiyalari boshqa kelishik qo'shimchalarga o'xshamaydi.

Turkiy dialekt tadqiqotlarida ham *+nI* holi vazifasining o'zgarishi qayd etilgan. O'zbek tilshunosi olimi A.N.Rustamov kuzatuviga ko'ra, Toshkent va Samarqand dialektlarida *+nI* qo'shimchasi qayta aniqlovchi vazifadan qaratqich kelishigi vazifasini o'tganligi ko'riladi. Turkiyalik tilshunos olimlar Çetin Pekacar va Erdem Uçarlarni tahliliga ko'ra, *+nI* shakli asosan tushum qo'shimchasining funksiyasining turk tilida qaratqich klishigi vazifasini bajarishish yo'li bilan paydo bo'lgan. Bu fikrlar *+nInni* alohida mustaqil qo'shimcha emas, balki tushum *+nI* fonetik varianti sifatida ko'riladi. Hozirgi o'zbek grammatikasi haqida vengriyalik olim Bodrogligeti *+nI* bilan *+niŋ* kelishigi orasida funksional farq yo'qligi, *+nI* ning faqat talaffuziy variantek

ishlatilishi qayd etiladi. Ya'ni bugungi o'zbek tilida ham ikkala shakl baribir egalik ma'nosini berib, faqat talaffuz jihatidan farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qaratqich kelishigi qo'shimchasining tarixi Oltoy davriga borib taqaladi va bir qancha kelishik shakllarini (+n, +In, +niŋ, +nIg) bosib o'tgan. Turli olimlarning fikricha, u dastlab +n ko'rinishida bo'lgan, so'ng bog'lovchi unli bilan +In ga, keyinchalik bo'g'iz tovushlari ta'sirida +niŋ va +nIg shakllariga o'tgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, +nIg O'rta asr turk adabiyotlarida keng qo'llanilib, oxirida +nI ga rivojlangan. Bugungi o'zbek va turk tillarida esa genitiv ko'rinishlar asosan +nI (o'zbekcha –ning, turkcha –nIn) sifatida saqlangan. Mehmet Vefa Nalbantning yakuniy tahliliga ko'ra, +nI shaklini keng tarqatgan jarayon +niŋ dan +nIg, keyin +nI ga kechgan (ya'ni /g/ tovushi yo'qolishidan so'ng sodir bo'lgan) bo'lib, buni turli qadimiy manbalar va dialektal kuzatmalar tasdiqlaydi. Shunday qilib, qaratqich qo'shimchasi o'zbek va turk tillarida qadimdan boshlangan fonetik evolyutsiya oqibatida bugungi ko'rinishini olgan. Ushbu xulosa turkiy tillar qaratqich kelishigi tizimini o'rganishda yangi perspektiva sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida turkiy tillar grammatikasi, qiyosiy tilshunoslik va tarixiy tilshunoslik fanlarini o'qitishda, shuningdek, ilmiy izlanishlarda kelishiklarni qiyoslab o'rganish o'zbek tilining tarixini, boyligini ko'rsatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. G.Abdurahmonov. Turkiy tillarning Qiyosiy-tarixiy grammatikasi. -Toshkent, 2008 -586 b.
2. H.A.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili (II qism). –Toshkent, 2004, -233 b.
3. RÄSÄNEN, Marti, (1969), Versuch Eines Etymologischen Wörterbuchs der Türkssprachen, Helsinki.
4. ECKMANN, Janos, (1988), Çağatayca El Kitabı, (Çev.: Günay Karaağaç), İstanbul: Edebiyat Fakültesi Basımevi.
5. TEKİN, Talat, (2013). “Türkçe İlgi Hâli Ekinin Kökeni Üzerine”, (Çev.: Gökçen Bilgin). Dil Araştırmaları (13): 157-162.
6. KORKMAZ, Zeynep, (1995), “uçun ~ üçün ~ için vb. Edatlarının Yapısı Üzerine”, Türk Dili Üzerine Araştırmalar I, Ankara: TDK Yayınları: 94-97.